

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN METODLARINING O'ZIGA XOSLIGI.

**Isag'aliyeva Fotimaxon**

*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladigan metodlarning o'quvchi yoshlarni bilim olishida tutgan ahamiyati va ularni fanlarga qiziqtirishda qanday fanga oid metodlardan qo'llanish kerakligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о важности методов, обычно используемых в начальных классах, в обучении молодежи и о том, какие научно-технические методы следует использовать, чтобы заинтересовать их наукой.*

**Abstract:** *This article provides information about the importance of the methods commonly used in elementary grades in the learning of young people and what science-related methods should be used to interest them in science.*

**Tayanch iboralar:** *Metodlar, interaktiv, samaradorlik, "Zinama-zina" metodi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik yangilik, texnologiyalar.*

Inson tug'iladi, tarbiyalanadi, ilm-u bilim sirlarini o'rganadi. Jamiyatda yashayotgan harqanday kishi, albatta, maktabgacha ta'lim muassasalarida yoki oliy ta'limni bitirmagani bilan, maktab ostonasini qatlab o'tgan va boshlang'ich sinfda dastlabki bilim sirlarini o'rganganligi hechkinga sir emas. Shunday ekan, insonni birinchi bo'lib hayotga tayyorlaydigan va boshlang'ich ilm-u bilim sirlarini boshlang'ich sinflarda oladi. Shu bois, o'qituvchilar endi maktabga qadam qo'ygan jajji misli oppoq qog'ozga aniq va yaxshi ma'lumotlarni oltin siyohlar bilan bitishi o'qituvchining eng birinchi vazifasidandir<sup>54</sup>. Zamonaviy ustoz o'z darslarini qiziqarli o'yinlar bilan, interaktiv va fanga oid metodlar bilan o'tsa, o'quvchining ham qabul qilish darajasi ancha yaxshi bo'ladi. Endi metod deganimiz nima o'zi? degan savolga yuzlanaylik. **"Metod"** so'zi grek tilidan olingan bo'lib, *usul teoriya, talimat* degan ma'nolarni ifodalaydi. Yana bir tushincha borki interaktiv metod. Interaktiv ingliz tilidan olingan o'zaro ta'sir, bir jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat

<sup>54</sup> Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018

pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga o'qitishning interfaolligi o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro ta'sor asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir<sup>55</sup>.

Interaktiv mashg'ulot-o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirol etadigan mashg'ulot, jarayon hamkorlikda kechadi. Interaktiv metodlar o'zining quyidagi o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

1. Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir-birini to'liq tushuntirishga asoslanadi.

2. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadidars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim.

3. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi vazifasini bajaradi.

4. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustqail qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi<sup>56</sup>.

### **Interfaol usullardan foydalanish shakllari:**

1. Individuallashtirish
2. Kichik guruhlariga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O'rgatish va o'rganosh jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish; o'zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanishning muhim jihatlari ta'lim samaradorligiga erishishga yetarlicha hissa qo'shish bilan ahamiyatlidir. Bugungi kunga kelib interaktiv metodlarning ko'pgina turlari mavjud:

1. Aqloy hujum. Breynshtormin
2. O'yinli o'qitish texnologiyasi
3. Jamoaviy o'qitish usuli
4. Kichik guruhlarda ishlash metodi
5. Tarmoqlar metodi
6. 3×4 metodi
7. Blits o'yini
8. Interv'yu metodi

<sup>55</sup> [WWW.OPENSOURCE.UZ](http://WWW.OPENSOURCE.UZ)

<sup>56</sup> Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2005

9. Ixtiriyot metodi

10. Bumerang

11. Muloqot metodi

12. Zinama-zina texnologiyasi .Bu metodlarning ba'zilariga izoh berib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz<sup>57</sup>.

### **“ZINAMA-ZINA” TEXNOLOGIYASI**

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi) larni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi) lar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi. Texnologiyaning maqsadi. Talab (yoki o'quvchi)larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish<sup>58</sup>. Texnologiyaning qo'llanishi: ma'ruza (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darolarida qo'llanilishi mumkin. Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar.

#### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi) larni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo'lgani ma'qul);

- talaba(yoki o'quvchi)lar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;

- o'qituvchi guruh a'zolarin tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

<sup>57</sup> Avliyoqulov N.X. “Zamonaviy o'qitish texnologiyalari”-Toshkent, 2001

<sup>58</sup> Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.

- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko`rinishida ifoda etadilar.Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo`yicha imkon boricha to`laroq ma'lumot berishlari kerak bo`ladi.

- Tarqatma materiallar to`ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi.Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materialar, albatta, auditoriya(sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi;

- O`qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg`ulotni yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi<sup>59</sup>. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'limning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir<sup>60</sup>.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat sifatida qarash lozim. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o'quvchining keyingi davrdagi o'qish jarayoniga bo'lgan tasavvurida eng ahamiyatli davrdir. Dars mashg'ulotlari vaqtida har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

---

<sup>59</sup> Asauliyuk E.P. Integrirovanny podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivy nauki. 2011. №10 str.222-226

<sup>60</sup> Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.

**REFERENCES**

1. Umumiy pedagogika "Fan va texnologiya" nashriyoti,2018
2. [WWW.OPENSOURCE.UZ](http://WWW.OPENSOURCE.UZ)
3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2005
4. Avliyoqulov N.X. "Zamonaviy o'qitish texnologiyalari"-Toshkent, 2001
5. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
6. Asulyuk E.P. Integrirovanny podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivy nauki. 2011. №10 str.222-226
7. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.